YOZUVCHI IJODIDA INDIVIDUAL USLUB VA ADABIY MAKTAB AN'ANALARI

Hamidova Muhayyoxon Obidovna,
Namangan davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori, f.f.n.
https://orcid.org/0009-0007-9423-6274
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19528492

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yozuvchi ijodida individual uslub va adabiy maktab an'analari o'zaro munosabati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tahlilda individual uslubning shakllanish omillari, badiiy tafakkur evolyutsiyasi hamda ijodkorning adabiy muhit bilan aloqasi masalalari yoritildi. Xususan, Shukur Xolmirzayev nasri misolida muallif uslubining o'ziga xos belgilarini belgilovchi omillar — milliy xarakter talqini, psixologik tasvir chuqurligi, hayotiylik va realizm tamoyillari tahlil etiladi. Shuningdek, adabiy maktab tushunchasining nazariy asoslari, an'ana va novatorlik dialektikasi, ijodiy ta'sir va davomiylik masalalari yoritilib, yozuvchi ijodining adabiy jarayondagi o'rni baholandi.*

Kalit so'zlar: *individual uslub, adabiy maktab, badiiy tafakkur, an'ana va novatorlik, psixologik tasvir, realizm, ijodiy ta'sir.*

Abstract. *This article provides a scholarly and theoretical analysis of the interrelationship between individual style and the traditions of the literary school in a writer's творчество. The study examines the factors influencing the formation of individual style, the evolution of artistic thinking, and the writer's connection with the literary environment. In particular, based on the prose of Shukur Xolmirzayev, the paper analyzes the defining features of the author's style, including the interpretation of national character, the depth of psychological depiction, vitality, and the principles of realism. Furthermore, the theoretical foundations of the concept of a literary school, the dialectics of tradition and innovation, as well as issues of creative influence and continuity are explored. The study evaluates the writer's place within the literary process and demonstrates the interdependent development of individual style and literary school traditions.*

Keywords: *individual style, literary school, artistic thinking, tradition and innovation, psychological depiction, realism, creative influence.*

Аннотация. *В данной статье в научно-теоретическом аспекте анализируется взаимосвязь индивидуального стиля и традиций литературной школы в творчестве писателя. В исследовании рассматриваются факторы формирования индивидуального стиля, эволюция художественного мышления, а также вопросы взаимодействия автора с литературной средой. В частности, на примере прозы Shukur Xolmirzayev анализируются особенности авторского стиля, определяемые интерпретацией национального характера, глубиной психологического изображения, жизненной достоверностью и принципами реализма. Кроме того, раскрываются теоретические основы понятия литературной школы, диалектика традиции и новаторства, проблемы творческого влияния и преемственности. В работе даётся оценка места писателя в литературном процессе и обосновывается взаимосвязанное развитие индивидуального стиля и традиций литературной школы.*

Ключевые слова: *индивидуальный стиль, литературная школа, художественное мышление, традиция и новаторство, психологизм, реализм, творческое влияние.*

Kirish. Adabiyotshunoslikda individual uslub va adabiy maktab masalasi ijodkor shaxsini anglash, uning badiiy tafakkur yo‘nalishini belgilash hamda adabiy jarayondagi o‘rnini aniqlashda muhim nazariy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Har bir yozuvchi o‘z davrining estetik talablari, ijtimoiy-madaniy muhiti va mavjud adabiy an’analari ta’sirida shakllanadi. Biroq ijodkorni adabiy jarayonda ajratib turadigan asosiy mezon – uning individual uslubi, badiiy tafakkurining betakrorligi va tasvir tamoyillarining o‘ziga xosligidir. Shu bois individual uslub va adabiy maktab o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

O‘zbek nasrida individual uslub masalasi ko‘plab ijodkorlar misolida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, adabiy maktab an’analari bilan uyg‘unlikda kompleks tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Bu jihatdan Shukur Xolmirzayev ijodi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Yozuvchining asarlarida milliy xarakter talqini, psixologik tasvir chuqurligi, hayotiylik va realizm tamoyillari o‘zaro uyg‘unlashib, muallifning mustaqil badiiy maktab darajasiga ko‘tarilgan ijodiy yo‘lini namoyon etadi. Shuning uchun biz yozuvchi ijodida individual uslubning shakllanish omillarini aniqlash, adabiy maktab tushunchasining nazariy asoslarini yoritish hamda an’ana va novatorlik dialektikasi asosida ularning o‘zaro aloqadorligini tahlil qilishni maqsad qildik.

Adabiyotlar tahlili. Individual uslub va adabiy maktab masalasi adabiyotshunoslikda keng tadqiq etilgan nazariy muammolardan biridir. Uslub kategoriyasi dastlab umumiy estetika va poetika doirasida o‘rganilgan bo‘lib, keyinchalik yozuvchi shaxsiyati va badiiy tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda talqin etila boshlandi. Xususan, rus formal maktabi vakillari – V.Shklovsky va Y.Tynyanov uslubni badiiy qurilma va adabiy evolyutsiya jarayoni bilan aloqador holda izohlagan bo‘lsalar, M.Baxtin individual uslubni muallif ongining dialogik tabiati va nutq shakllari bilan bog‘liq holda sharhlaydi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham uslub va adabiy maktab masalalariga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, O.Sharafiddinov [9], M.Qo‘shjonov [6], I.Gafurov [11], B.Nazarov [4], U.Normatov [5], H.Boltaboyev [1] kabi olimlar tomonidan yozuvchi uslubining badiiy-estetik xususiyatlari, an’ana va novatorlik muammolari, adabiy jarayonning tarixiy taraqqiyoti masalalari atroflicha yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida individual uslub ijodkorning dunyoqarashi, estetik ideali va tasvir tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilingan.

Shukur Xolmirzayev ijodi ham adabiyotshunoslar e’tiboridan chetda qolmagan. Yozuvchining nasriy merosi, undagi milliy xarakter talqini, psixologik tasvir vositalari va realizm tamoyillari yuzasidan bir qator maqola va monografiyalar yaratilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda asosan muayyan asarlar yoki alohida poetik unsurlar tahliliga urg‘u berilib, individual uslub va adabiy maktab an’analari o‘zaro bog‘liqlikda kompleks tarzda tadqiq etilmagan.

Shu bois mazkur maqola mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish, ularni zamonaviy nazariy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish hamda yozuvchi ijodini individual uslub va adabiy maktab fenomeni doirasida yaxlit holda tahlil qilishni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada yozuvchi ijodida individual uslub va adabiy maktab an’analari o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik, struktural tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-adabiy metod orqali ijodning shakllanish bosqichlari va adabiy muhit bilan bog‘liqligi tahlil qilinsa, qiyosiy-tipologik yondashuv individual uslub va adabiy maktab an’analari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam berdi. Struktural tahlil asosida asarlardagi syujet-kompozitsion qurilma va badiiy vositalar o‘rganildi. Tahlil jarayonida Shukur Xolmirzayev nasriy asarlari asosiy manba sifatida olingan va ularning individual uslub mezonlari asosida tahlili amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar. Tahlil jarayonida yozuvchi ijodida individual uslub va adabiy maktab an’analari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda shakllanishi aniqlandi. Xususan, Shukur Xolmirzayev nasriy asarlari misolida individual uslubning asosiy belgilari – hayotiylik, ichki dramatizm, psixologik tahlil chuqurligi, dialoglarning tabiiyligi va milliy xarakter talqini ekani kuzatildi. Yozuvchi qahramon ruhiyati tasvirida ortiqcha tasvirdan qochib, ichki monolog, ruhiy tafsilot va badiiy detallar orqali inson tabiatini ochishga intiladi. Bu esa uning uslubini samimiy va ishonarli chiqishini ta’minlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi an’anaviy realizm tamoyillarini davom ettirgan holda, ularni zamonaviy ruhiy-psixologik izlanishlar bilan boyitgan. Asarlarda milliy mentalitet, qishloq hayoti, oddiy inson taqdiri markazga qo‘yiladi, biroq bu tasvir tor mahalliylik darajasida qolmay, umuminsoniy mazmun kasb etadi. Shuningdek, adabiy maktab an’analari yozuvchi ijodida bevosita ta’sir va davomiylik shaklida ko‘zga tashlanadi, bu esa uning mustaqil estetik yo‘nalishni shakllantira olgan ijodkor sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

Adibning adabiy merosi nihoyatda salmoqli: yuzdan ortiq hikoya e’lon qilingan, 5 ta roman, 4 ta qissa, bolalar uchun bitta komediya va bitta pyesa, ikkita drama, ikkita kinossenariy, “Tungi qadamlar” nomli radiopyesa, yigirmadan ortiq esse, o‘nga yaqin ocherk, o‘ndan ziyod maqola yozgan yozuvchini haqli ravishda adabiyotimiz xazinasini boyitgan so‘z zargari deyishga haqlimiz. Shukur Xolmirzayevning “Oq otli” deb nomlangan ilk qissasi tog‘ bolalari hayotidan hikoya qiladi. Talabalik yillarida yozilgan “To‘lqinlar” (1963), “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” (1965) qissalari o‘z avlodi – tengqurlari hayotiga bag‘ishlangan. Shundan keyin adibning “Olis yulduzlar ostida”, “Hayot abadiy”, “Og‘ir tosh ko‘chsa...”, “Bodom qishda gulladi” (1968), “So‘nmas olov” (1985), “Tog‘larga qor tushdi” (1987) kabi hikoyalar to‘plamlari, “So‘nggi bekat”, “Qil ko‘prik”, “Yo‘lovchi”, “Olabo‘ji”, “Dinozavr” romanlari chop etildi.

Shukur Xolmirzayev o‘zbek adabiyotiga XX asrning 60-yillarida – milliy nasrda “yangi to‘lqin” shakllanayotgan, inson ruhiyatiga e’tibor kuchaygan bir davrda kirib keldi. Uning ijodiy yo‘li oddiy hikoyanavislikdan yirik epik polotnolar yaratishgacha bo‘lgan murakkab va izchil taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

Yozuvchining ijodiy yo‘lini shartli ravishda uchta asosiy bosqichga bo‘lish mumkin:

1.Izlanish bosqichi (60-yillar): “Oq otli” kabi ilk qissalarida yosh ijodkorning hayotni boricha tasvirlashga bo‘lgan intilishi, lirizm va realizmning o‘zaro sintezi kuzatiladi.

2.Kamolot bosqichi (70-80-yillar): Bu davrda yozuvchi “Qariya”, “Tabassum”, “Cho‘loq turna” kabi durdona hikoyalari va “So‘nggi bekat” kabi romani bilan o‘zbek realizmini yangi pog‘onaga olib chiqdi.

3.Falsafiy-estetik xulosalar davri (90-yillar va undan keyin): “Olabo‘ji”, “Dinozavr” kabi asarlarida millat qismati, istiqlol g‘oyalari va inson fojiasini ijtimoiy-siyosiy kontekstda tahlil qildi.

“Adabiyot – hasratdan boshqa narsa emas. Faqat, yozuvchining oddiy odamdan farqi-oddiy odam o‘z dardidan hasrat qilsa, yozuvchi birovlar dardidan hasrat qiladi” [8, 191] deb yashab o‘tgan adib o‘z hayotiy qaraslaridan, ona yurt va uning tarixini behad sevuvchi katta qalbi, or-nomusi va shijoati bilan hamma davrlarda ibrat oladigan shaxs edi.

Adib ijodiy merosi serqirra va serjiloligi bilan o‘quvchini maftun etadi. Bu ohangdorlik va rang-baranglik zamirida adib suygan erkinlik g‘oyasi mujassam desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Shukur Xolmirzayev ijodiy faoliyati davomida hech kimdan ohang olmadi hamda hech kimga soz va ovozini berib qo‘ygan emas. “Bizga yetishmay kelayotgan narsalardan eng muhimlari – ijodda halolligu hayotda mardlikdir” [7, 5], degan adibning gaplari ham fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi.

Shukur Xolmirzayev ijodining yuksakligi uning asarlari mavzulari, falsafasi, zamonaviyligi, g‘oyalari va o‘ziga xos san’ati bilan belgilanadi. U davrlar mafkurasiga o‘zini “bog‘lab bermadi”, qo‘lidan kelgancha zanjirlarni uzgan adibdir. Zotan, yozuvchi o‘z vasiyatnomasida: “Mening asarlarim, xususan, hikoyalarim, o‘zbek adabiyotida yangi bosqichdir; buning izohini bilgichlardan ham so‘rash lozim”, deb bejiz aytmagan. U o‘z xalqini mahdudlikda ayblash va “kaltaklash” yo‘lini tutmadi, uning ulug‘ imkoniyatlarini eslatish, kimligini o‘ziga anglatish, o‘zligini tanitish, uni uyg‘otish, kurashlarga va ozodlikka hozirlash yo‘lini tutdi.

“O‘zbek xalqining yarim asrlik hayoti Shukur Xolmirzayev ijodida aks etgan”, degan ta’rif ham nisbiy. Uning bittagina hikoyasida ba’zan bir asr “tarixi” aks etadi. Masalan, “Hukumat” hikoyasi bilan yaqindan tanishgan kitobxon bir asr fojiasi bilan tanishgandek bo‘ladi. Adib hikoyada bir tuzum va jamiyat halokatini ko‘rsata olgan. “Ustoz” hikoyasida esa davr mafkurasi quli bo‘lgan, ustoz qiyofasidagi jallod siymosi

chizib berilgan. “Tabassum” hikoyasida Mo‘minning ko‘kragini bezagan sho‘ro orden-medallari faqatgina o‘z xalqiga, o‘z vataniga xiyonati va sotqinligi uchun ekanligi asar qahramoni Jalil otaning xotiralari orqali yorqin ochib berilgan.

Adib tinimsiz ijod qilish bilan birga O‘zbekiston Milliy universiteti filologiya fakulteti huzuridagi Oliy adabiyot kursida adabiy darslar, suhbatlar o‘tkazar, shunga o‘zini haqdor sanar va shundan mamnun edi.

Keyingi avlod yozuvchilariga ajib, asosli ta’riflar berardi. Ba’zilarning mavzusi yaxshi bo‘lib, mahorati sustligini, ba’zilarning yozgani yaxshi bo‘lib, sarlavhalari joyiga tushmaganini, ba’zilarning jumlalari “g‘ishtdek” qalanib, bir sahifada birorta xatboshisi yo‘qligini aytardi. O‘z vatani tarixini bilmagan, unga qiziqmagan, muhim tarixiy mavzularni chetlab o‘tgan yozuvchilarni tanqid qilardi. So‘z san’atida masxarabozlikni yoqtirmas edi. Hatto, “Tanholik” asarida Tolstoy tilidan: “Tavba, san’at asari hayotni masxara qilsa, yaxshimish”, – degan edi.

Adib bilan vidolashuv chog‘ida O‘zbekiston xalq shoiri A.Oripov shunday so‘zlarni aytgan edi: “Qog‘oz qoralab yurgan har kimni ham, “men yozuvchiman” deb da’vo qiladiganlarning hammasini ham haqiqiy yozuvchi deb bo‘lmaydi. Haqiqiy yozuvchining timsolini biz Shukur Xolmirzayevga o‘xshagan adiblar misolida ko‘ramiz. U tom ma’nodagi professional yozuvchi edi. Yoshlarimiz jahon adabiyotini Shukur orqali o‘rganishlari kerak. Chunki uning asarlarida jahon adabiyotining eng ilg‘or an’analari yuksak darajada mujassam bo‘lgan. Shukur Xolmirzayev adabiyotimizda o‘z maktabini yaratdi. Jahon adabiyoti mashvaratida uning o‘z o‘rni bor. Buni e’tirof etish kerak”. Darhaqiqat, adib o‘zbek hikoyachiligida benazir bir maktab yarata oldi. Bu esa kata iste’dod qatori katta mehnat, katta muhabbatni talab qiladigan mashaqqatli mas’uliyat edi. Uning betakror hikoyalarida o‘zbek milliy ruhining ulug‘vor manzaralari tirik suratlarda aks etadi [10].

Shukur Xolmirzayev ijodi asosan istiqlol davrida rasman qadrlandi: 1991-yilda O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvoni, 1999-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni, 2001-yilda O‘zbekiston mustaqilliganing 10 yilligi nishoni berildi [3].

Shukur Xolmirzayev ijodiy yo‘li – bu milliy o‘zlikni anglash va badiiy tafakkurning erkinlikka chiqish jarayonidir. U yaratgan adabiy maktab bugungi o‘zbek nasrining realizm, psixologizm va milliy xarakter yaratish borasidagi asosiy mezonlarini belgilab berdi.

Shukur Xolmirzayev o‘zbek nasrida shunchaki ustoz emas, balki “nasrning vijdon darajasi”ni belgilab bergan mezon edi. Uning maktabi shogirdlari ijodida o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, adib izdoshlaridan Nazar Eshonqul uning “shafqatsiz realism” an’anasini modernistik ruh bilan boyitdi. Yozuvchi asarlaridagi

(“Olabo‘ji”, “Dinozavr”) ijtimoiy og‘riqlar Nazar Eshonqul ijodida insoniyatning ekzistensial muammolariga ko‘chdi.

Adibning detallarga bo‘lgan e’tiborini Nazar Eshonqul ramziylik darajasiga ko‘tardi. “Maymun yetaklagan odam” asarida Sh.Xolmirzayevga xos bo‘lgan murosasiz haqiqatgo‘ylikning modernistik talqinini ko‘ramiz.

Luqmon Bo‘rixon ijodida Sh.Xolmirzayevning “etnografik realizmi” va milliy xarakter yaratish mahorati yaqqol seziladi.Adibning tog‘li qishloqlar hayoti, odamlari va ularning sodda, ammo murakkab tabiatini tasvirlash mahorati Luqmon Bo‘rixonning asarlarida davom etdi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Sh.Xolmirzayev kabi L.Bo‘rixon ham qahramonlarini ideallashtirmaydi; ularning xatolari, ojizliklari va insoniy qirralarini “Xolmirzayevcha” xolislik bilan qog‘ozga tushiradi.

Shodiqul Hamro nasrida Sh.Xolmirzayevga xos bo‘lgan hayotni “boricha” ko‘rsatish, asar syujetini kichik, ammo muhim hayotiy voqealar ustiga qurish tamoyili ustuvor. Yozuvchi ustozidan qahramonning ichki dunyosini uning tashqi muhit bilan to‘qnashuvida ochish sirlarini o‘rgandi. Uning hikoyalaridagi har bir detal qahramonning ijtimoiy portretini chizishga xizmat qiladi, bu esa bevosita Shukur Xolmirzayev adabiy laboratoriyasining ta’siridir.

Shukur Xolmirzayevning shogirdlari shunchaki unga taqlid qilmadilar, balki ustoz an’analarini yangi davr – mustaqillik davri tafakkuri bilan boyitdilar. Yozuvchining maktabi bugungi kunda “soxta estetika”ga qarshi turuvchi va “haqiqiy badiiyat”ni himoya qiluvchi asosiy qalqon vazifasini o‘tamoqda.

Shukur Xolmirzayev adabiy maktabi – bu shunchaki “yozish texnikasi”ni o‘rgatadigan maktab emas, balki badiiy haqiqatga sadoqat maktabidir. Uning shogirdlari:

1.Ustozidan murosa qilmaslik (ijodda yolg‘on gapirmaslik) tamoyillarini o‘rgandilar.

2.Nasrda detalning o‘rnini fundamental darajaga ko‘tardilar.

Xulosa. Umuman olganda, yozuvchi ijodida individual uslub va adabiy maktab an’analari o‘zaro dialektik birlikda shakllanadi: individual uslub ijodkorning estetik qarashlari, hayotiy tajribasi va badiiy tafakkuri asosida yuzaga kelsa, adabiy maktab an’analari uning ijodiy kamolotida muhim metodologik va estetik tayanch vazifasini bajaradi. Shukur Xolmirzayev nasri misolida psixologik tasvir chuqurligi, milliy xarakter talqini, hayotiylik va realizm tamoyillarining uyg‘unligi individual uslubning yetakchi belgisi sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi; natijada yozuvchi an’anaviy realizmni ijodiy o‘zlashtirib, uni yangicha ruhiy-estetik izlanishlar bilan boyitgan va mustaqil badiiy maktab darajasiga ko‘tarilgan ijodiy fenomen sifatida baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992. – 105 б.
2. Hamidova M. Badiiy tasvir va uslub qirralari: Monografiya. – Namangan: Usmon Nosir media, 2024. – 188 b.
3. Кенжабек М. Ватанга фидолик масъулиятти // https://teletype.in/@otabeksafarov/06Zw0HIbx3l 2010
4. Назаров Б. Ўзбек адабий танқидчилиги. Ғоявийлик, метод. Қаҳрамон. –Тошкент: Фан, 1979. – 285 б.
5. Норматов У. Етуклик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. – 365 б.
6. Қўшжонов М. Доим изланишда. / Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.
7. Тошбоев О. Абадий замондош. Шукур Холмирзаев ҳаёти ва ижодий фаолиятидан лавҳалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 480 б.
8. Холмирзаев Ш. Билиб ёзган яхши // Шарқ юлдузи, 1977. – № 2. –Б.191.
9. Шарафиддинов О. Ҳақиқатга садоқат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 415 б.
10. Эшқобил Шукур. Эҳ, акам-а, акам... https://teletype.in/@otabeksafarov/dsNO1wxWqwZ
11. Ғафуров И. Ўттиз йил изҳори: Адабий ўйлар, мақолалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – 400 б.